

XITOIY TILIDA AFFIKSATSIYA, KOMPOZITSIYA VA O‘ZLASHTIRISH USULI ORQALI EKOLOGIK TERMINLARNING YASALISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-716-720>

Gulyamova Zeboxon Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
magistratura bosqichi (lingvistika xitoy tili)1-kurs talabasi
zebokhon.nozimova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi kunda dolzarb ilm sohasiga aylangan ekologiya yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, ekologiya sohasidagi terminlarni semantik va struktur tahlil, terminlar yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, o‘zlashtirish usullarini tahlil qilib, ular orasidan eng mahsuldor usulni aniqlashdan iborat.

Kalit so‘z va so‘z birikmalari: terminologiya, termin, ekologiya, ekologik terminlar tuzulishi, kompozitsiya, affiksatsiya, o‘zlashtirish usuli, lingvistik komponentlar.

Abstract: This article is a study of scientific research in the field of ecology, which has become an actual field of science, a semantic and structural analysis of terms in the field of ecology, an analysis of the methods of affixation, composition, assimilation of terms, and determining the most productive method among them.

Key words and phrases: terminology, term, ecology, structure of ecological terms, composition, affixation, acquisition method, linguistic components.

Ekologiya yoki oykologiya¹ (yunoncha “oikos” – uy, turar joy va “logos” – fan) tirik organizmlarning tabiat bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Bu termin birinchi marta 1866-yilda nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" ("Generelle Morphologie der Organismen") kitobida taklif qilingan. Xitoy tili leksikologiyasida bu atama 生态学² *shēngtài xué* tarzida ifodalanadi.

So‘z yasash usuli mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lib, so‘z yasashning biror usuli orqali yangi so‘z hosil qilish mustaqil so‘z turkumlarining barchasi uchun xos xususiyat emas.³ So‘z yasalishidan farqli o‘laroq terminlarning yasalishi murakkab jarayon. “Termin-fan va texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; Terminlar bir ma‘noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega

¹ Глинка К. Д., В. В. Докучаев как почвовед // Памяти проф. В. В. Докучаева. СПб.: Тип. И. Н. Скороходова, 1904. – С. 6.

² 现代汉语词典范明贤等编。北京外语教学与研究出版社，2002.– 页.152.

³ Фролова О.П. Словообразование в терминологический лексике. СКЯ. – Н., 1981. – С.49.

bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi...”⁴ Ekologik terminlar ham boshqa soha terminlariga o'xshab ichki va tashqi manba hisobiga boyib boradi. Quyida ekologik terminlarning yasash usullarini tahlil qilib chiqamiz.

Affiksatsiya so'z yasashi usulining biri sifatida yangi leksik birliklarni hosil qilishda turli hil struktur-semantik xarakterga ega bo'lgan hosilalarni vujudga keltiradi. Xitoy tilidagi affikslar, xuddi boshqa tillardagidek, mustaqil ma'noli so'zlarning ma'no yo'qotishi natijasida so'z yasovchi vositalarga aylanishi oqibatida paydo bo'lgan. Ma'lumki, mustaqil ma'noli so'z affiks bo'lgandan oldin asta-sekin o'z asl ma'nosini yo'qotadi. Affiks mavhum grammatik ma'noga ega bo'lib, predmet-leksik ma'nodan mahrum. Affikslar funksional klassifikatsiyasiga ko'ra so'z yasovchi va shakl yasovchilarga bo'linadi. Affikslarni shakl yasovchi va so'z yasovchi guruhlarga ajratishilishi kompleks funksional–semantik, struktur va distributiv kriteriyalarga tayanadi.⁵

A.A.Reformatskiyning bergan ta'rifiga ko'ra: “Affiksatsiya usuli o'zakka (negizga) affikslarning birikishidir. ...Affikslar grammatik ma'noga ega bo'lgan morfemalardir. Affikslar so'zdan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, ular negizga qo'shib, so'z yasash va so'z o'zgartirish maqsadida qo'llanadi”⁶

Xitoy tilida affiks so'z yasashi mahsuldorlik jihatidan kompozitsiya usulidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Bu qoida ekologik terminlar yasashida ham o'z kuchini saqlab qolgan. Tilshunoslikda affiksatsiya va yarim affiksatsiya ikki xil mustaqil usullar sifatida o'rganiladi. Bu ikki usulning bir-biridan farqi shundaki, birinchi usul yordamida xitoy tilida mavjud so'zlar va so'z negizlari asosida yangi so'zlar hosil bo'ladi, ikkinchi usulda esa yarimaffikslar yordamida yangi so'zlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Affiksatsiya so'z yasashining morfologik usuliga kiradi.⁷

Affikslar o'z ichiga prefikslar, suffikslar va yarimsuffikslarni oladi. Affiks o'zakka qo'shib, har xil ma'nolarni ifodalashda xizmat qiladigan morfemadir. Affikslar vazifasi va qo'llanilishi jihatidan bir qancha xususiyatlarga ega.⁸

Xitoy tilida ko'plab qo'shimchalar mavjud, ularning har biri tilda muayyan vazifani bajaradi. Eng samarali zamonaviy xitoy tilidagi modellar –义, –性, –者, –们, –儿, –子, –然 qo'shimchalari bo'lgan modellardir.

–者 suffiksi kasb yoki kasbni bildiruvchi shaxs narsa oti yasaydi va u jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu qo'shimcha ingliz tilidagi –er qo'shimchasiga ma'no jihatdan o'xshash. Shuningdek, rus tilida –щик, –чик, –тель, –ист qo'shimchalariga

⁴ Hojaev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi, 2002. –B.104.

⁵ Hashimova S.A. Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya, affiksatsiya va konversiya. DSc avtoreferat. – T., 2020. -B.17.

⁶ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.,1955. – С.207.

⁷ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.,1984. – С.50; Цыкин В.А. Именное словопроизводство в современном китайском языке. –М., 1980. – С.12.

⁸ Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.:Муравей,2000. – С.89; Жданкин И.В. Слова единицы речи в китайском языке. – М., 1986. – С.78.

ekvivalent bo‘ladi. O‘zbek tilida esa –kor, –dosh, –chi qo‘shimchalariga ma‘nodosh bo‘ladi.

Masalan, 广食者 guǎng shí zhě – xo‘randa ya‘ni ko‘p o‘simliklarni yeyuvchi o‘txor hayvonlar turkumiga yatiladi.

寡食者 guǎ shí zhě– kam yeyuvchi hayvonlar ya‘ni kam ovqatlanuvchi o‘txo‘r hayvonlar.

Kompozitsiya usuli

Kompozitsiya usuli deganda umumiy tilshunoslikda bir necha (ikki va undan ortiq) so‘z yoki negizlarning birlashuvi natijasida yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi tushuniladi.

Xitoy tilida kompozitsiya usuli yordamida ikki yoki bir nechta so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi orqali yangi so‘z hosil bo‘lishi kuzatiladi. Kompozitsiya usuli natijasida murakkab so‘zlar vujudga keladi. V.M.Solntsevning aytishicha: “So‘z qo‘shilishi jarayoni boshqarib bo‘lmas darajada jadal sur‘atda ro‘y berib, bu usulda yonma–yon turgan ikki so‘z o‘zaro qo‘shilib bir butunlikni hosil qiladi.

Kompozitsiya usulining atributiv modeli ekologik terminlarning yasashida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ekologik terminlar eng ko‘p tarqalgani to‘rt komponentli terminlar bo‘lganligi uchun quyida kompozitsiya usulining atributiv modeli orqali yasalgan to‘rt komponentli ekologik terminlarni tahlil qilamiz.

Ot 名词 míngcí + ot 名词 míngcí

人工智能 réngōng zhìnéng sun‘iy intellekt = 人+工

生物燃料 shēngwù ránliào bioyoqilg‘i = bio + yoqilg‘i;

气候模式 qìhòu móshì iqlim modeli = iqlim + modeli;

Ot 名词 míngcí + fe‘l 动词 dòngcí / fe‘l 动词 dòngcí + Ot 名词 míngcí

人为排放 rénwéi páifàng texnogen emissiyalash = texnogen + emissiyalash;

气候变化 qìhòu biànhuà iqlim o‘zgarishi = iqlim + o‘zgarish;

空气污染 kōngqì wūrǎn havoning ifloslanishi = havo + ifloslanmoq;

Ot 名词 míngcí + sifat 形容词 xíngróngcí / + sifat 形容词 xíngróngcí + Ot 名词 míngcí

基线情景 jīxiàn qíngjǐng asosiy ssenariy = asosiy + ssenariy, muhit;

有利条件 yǒulì tiáojiàn qulay sharoitlar = qulay + sharoit;

性别公平 xìngbié gōngpíng gender tengligi = gender, jins + teng;

Yuqoridagi tahlil natijasida shu aniq bo‘ldiki, ekologik terminlarning aksariyat tarkibida ot so‘z turkumidagi so‘z ishtiroki mavjud. Bir komponentli sodda ekologik terminlari ham ot, sifat, ravish so‘z turkumiga oidligi aniqlandi.

Ekologik terminlar hosil bo‘lishida kompozitsiya usuli eng samarador usullardan hisoblanadi.

O‘zlashtirish usuli

Gorelov V.I. o‘zlashtirilgan so‘zlarni so‘z yasash turlarida o‘rganmay, ularni so‘zlarning kelib chiqishini tasniflab o‘rganadi. Zamonaviy xitoy tili lug‘at tarkibini

o‘rganar ekan, u ularni uch sistemaga tasniflaydi, ular: etimologik (kelib chiqishiga ko‘ra), xronologik (mavjud bo‘lish vaqtining uzoqligi), funksional (qo‘llanilish o‘rniga ko‘ra)⁹

Kelib chiqishiga ko‘ra (etimologik) Gorelov V.I. so‘zlarni qadimgi leksika va o‘zlashtirilgan leksikalarga ajratadi. O‘zlashtirma so‘zlar yoki boshqacha qilib aytganda boshqa tillardan o‘zlashtirmalar xitoy tilida 借词 jiècí yoki 外来词 wàiláicí deb nomlanadi. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘proq o‘zlashtiriladi. Sifat, fe‘l, ravish so‘z turkumlariga oid o‘zlashtirma so‘zlar juda kam miqdorni tashkil etadi. Boshqa tillardan o‘zlashgan leksik birliklar o‘zlashtirish usuliga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

- Fonetik
- Semantik
- Fonetik–semantik¹⁰

XX asrdan boshlab xitoy tilining lug‘at tarkibi chet tillardan o‘zlashgan so‘zlari wàiláicí hisobiga ham rivojlana boshladi. O‘zlashma so‘z o‘zga tildan qabul qilingan so‘zdir. Bir tilning ikkinchi tilga ta’siri fonetika yoki grammatikada emas, balki aynan leksikada yaqqol ko‘rinadi. Xitoy tilida mavjud zamonaviy terminlarning ko‘p qismi asl xitoy so‘zi yoki morfemalar yig‘indisi ko‘rinishida bo‘lsada, Xitoyga o‘zga yurtlardan kirib borgan turli xil ta’limotlar tufayli vujudga kelgan.

Xitoy tilida kompozitsiya usuli yordamida ikki yoki bir nechta so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi orqali yangi so‘z hosil bo‘lishi kuzatiladi. Kompozitsiya usuli natijasida murakkab so‘zlar vujudga keladi. Kompozitsiya usulining atributiv modeli ekologik terminlarning yasashida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular quyidagi tartibda yasaladi: Ot 名词 míngcí + ot 名词 míngcí, Ot 名词 míngcí + fe‘l 动词 dòngcí / fe‘l 动词 dòngcí + Ot 名词 míngcí, Ot 名词 míngcí + sifat 形容词 xíngróngcí / + sifat 形容词 xíngróngcí + Ot 名词 míngcí.

XX asrdan boshlab xitoy tilining lug‘at tarkibi chet tillardan o‘zlashgan so‘zlari wàiláicí hisobiga ham rivojlana boshladi. O‘zlashma so‘z o‘zga tildan qabul qilingan so‘zdir.

Xulosa qilib aytganda, xitoy tili leksikologiyasida ekologik terminlardan ko‘p foydalanish davr talabiga aylandi, terminlarni siyosiy hujjatlarda, rahbarlarning nutqlarida faollik darajasi o‘shirildi bormoqda. Ekologiya fani esa yangi fan sifatida yangi terminlarni hosil qilish bosqichida va ular leksik, semantik va struktur jihatidan o‘ziga xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 现代汉语词典范明贤等编。北京外语教学与研究出版社, 2002.
2. Глинка К. Д. В. В. Докучаев как почвовед // Памяти проф. В. В. Докучаева. СПб.: Тип. И. Н. Скороходова, 1904.-100с

⁹ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.,1984. – С.139.

¹⁰ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.,1984. – С.140.

3. Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining lesik-semantik va struktural tahlili.-Nomzodlik dissertatsiyasi,Toshkent,2008yil.- 180 bet .
4. Очиров О.Р. Терминология современного китайского языка.- Москва:Наука,2012.- 400с.
5. <https://baike.baidu.com>
6. <https://www.multitran.com>
7. Хашимова, С. А. (2020). ХОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ҲОДИСАСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(2).
8. Хашимова, С. (2023). ВОПРОС ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЙ В ОТНОШЕНИИ СЛОВООБРАЗУЮЩИХ ЭЛЕМЕНТОВ СОВРЕМЕННОГО КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(20), 143-147.
9. Хашимова, С., & Комилова, М. (2018). Некоторые характеристики слов с разными морфемами в китайском языке. *Восточный факел*, 3(3), 41-44.
10. Хашимова, С. (2018). Центральная Азия и Узбекистан: как переформировать Land-Locked в Land-Crossed. *Востоковедения*, 1(1), 122-129.
11. Nasirova, S. (2022). Staff of officials of the Eastern Palace in ancient China. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 12, 19-22.
12. NASIROVA, S. (2022). Human resource system of ancient China (chronological aspect). *SHARQ MASH'ALI*, (01), 31-32.
13. Nasirova, S. A. (2023). Лексико-Семантический Анализ Общественно–Политических Терминов Древнего Китайского Языка: Система Кадровых Ресурсов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 17, 20-30.
14. Nasirova, S. (2023). ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СИСТЕМЕ ОХРАНЫ ТРУДА ЖЕНЩИН (НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ОПЫТА КИТАЯ В ВОПРОСЕ РЕПРОДУКТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ). In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 796-801). ООО «SupportScience».
15. Nasirova, S. A. (2022). POLITICAL INSTITUTIONALIZATION OF ANCIENT CHINA: HISTORICAL ANALYSIS OF THE TERMS OF THE LOCAL POLITICAL SYSTEM OF ANCIENT CHINA. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(08), 51-56.
16. Nasirova, S. A. (2022). RELIGIOUS AFFAIRS MANAGEMENT SYSTEM IN ANCIENT CHINA (LINGUISTIC ANALYSIS IN DIACHRONIC ASPECT). *Builders Of The Future*, 2(02), 288-297.